


I S T E ' M O L B O Z O R I

CHAKANA SAVDO TOVAR AYLANMASI


Andijon viloyati bo'yicha 2019- yil yanvar-iyun oylarida chakana savdo aylanmasi 7 525,8 mlrd so'mni tashkil etib, o'tgan yilning shu davriga nisbatan 5,4 % ga oshdi.

2019- yil yanvar-iyun oylarida ovqatlanish tashkilotlarini qo'shgan holda, chakana savdo tovar aylanmasi va o'sish sur'atlari (o'tgan yilning shu davriga nisbatan, foizda)



O'tgan yilning shu davriga nisbatan viloyatning barcha tumanlarida o'sish sur'atlari kuzatildi. Xususan, yuqoriroq o'sish sur'atlari Asaka (6,8 % ga), Buloqboshi (6,3 % ga), Shahrixon (5,9 % ga), Andijon (5,9 % ga), Oltinko'l (5,6 % ga) tumanlarida va Andijon shahri (5,9 % ga) tashkil etdi. Yuqori bo'lmagan o'sish sur'atlari Baliqchi (2,6 % ga), Bo'z (2,9 % ga) tumanlarida kuzatildi.

Tuman(shahar)larning jami chakana savdo tovar aylanmasidagi ulushi, foizda



Chakana savdo tovar aylanmasi hajmida katta ulushga ega bo'lgan Andijon shahri (32,2 %), Shahrixon (12,9 %), Asaka (10,8 %), Qo'rg'ontepa (8,4 %) va Baliqchi (5,7 %) tumanlari chakana savdo tovar aylanmasining o'sishiga ijobiy ta'sir ko'rsatdi.

Aholi jon boshiga chakana savdo tovar aylanmasi

| Shaharlar va tumanlar nomi | Ming so‘m | O‘tgan yilning shu davriga nisbatan, foizda |
|-------------------------------|----------------|--|
| Viloyat bo‘yicha: | 1 885,9 | 103,5 |
| Andijon sh. | 4 294,2 | 104,3 |
| Xonobod sh. | 1 591,4 | 103,3 |
| Andijon t. | 1 192,3 | 103,3 |
| Asaka t. | 1 956,5 | 104,7 |
| Baliqchi t. | 1 691,3 | 100,7 |
| Buloqboshi t. | 878,9 | 104,6 |
| Bo'z t. | 868,5 | 101,2 |
| Jalaquduq t. | 851,7 | 101,4 |
| Izboskan t. | 855,2 | 102,4 |
| Ulug'nor t. | 798,1 | 102,3 |
| Marhamat t. | 1 022,9 | 103,4 |
| Oltinko'l t. | 1 177,1 | 103,6 |
| Paxtaobod t. | 1 180,0 | 102,7 |
| Xo'jaobod t. | 1 679,8 | 103,4 |
| Shaxrixon t. | 2 556,6 | 103,8 |
| Qo'rg'ontepa t. | 2 315,0 | 102,7 |

Ovqatlanish tashkilotlarini qo‘shgan holda, chakana savdo tovar aylanmasi aholi jon boshiga 3,5 % ga oshib, 1 885,9 ming so‘mni tashkil etdi (2018- yil 1 634,3 ming so‘mni tashkil qilgan edi). O‘rtacha jon boshiga tovar aylanmasining eng yuqori ko‘rsatkichlari Andijon shahri (4 294,2 ming so‘m), Shaxrixon (2 556,6 ming so‘m) va Qo‘rg‘ontepa tumanlarida (2 315,0 ming so‘m) kuzatildi.

**2019- yil yanvar-iyun oylarida chakana savdo va umumiy
ovqatlanishda yirik korxonalar savdo aylanmasi**



Mln.so‘m


O‘tgan yilning shu
davriga nisbatan, foizda

| Viloyat bo‘yicha: | 688 378,6 | 133,9 |
|--------------------------|------------------|---------------|
| Andijon sh. | 539 624,7 | 132,1 |
| Xonobod sh. | 2 661,6 | 116,4 |
| Andijon t. | 21 133,2 | 107,1 |
| Asaka t. | 57 957,2 | 4,5 m |
| Baliqchi t. | 8 520,8 | 98,5 |
| Buloqboshi t. | 5 417,1 | 35,9 m |
| Bo'z t. | 2 944,3 | 101,5 |
| Jalaquduq t. | 3 070,5 | 88,1 |
| Izboskan t. | 3 608,4 | 26,4 |
| Ulug'nor t. | 167,6 | 104,0 |
| Marhamat t. | 3 672,7 | 85,5 |
| Oltinko'l t. | 9 185,0 | 4,5 m |
| Paxtaobod t. | 5 358,9 | 68,0 |
| Xo'jaobod t. | 2 733,4 | 150,4 |
| Shahrixon t. | 17 240,5 | 81,3 |
| Qo'rg'ontepa t. | 5 082,7 | 115,1 |

KICHIK TADBIRKORLIKNING CHAKANA SAVDODAGI ULUSHI

Kichik tadbirkorlik (biznes) sub'ektlarining tovar aylanmasi o'tgan yilning shu davriga nisbatan 3,1 % ga o'sdi va jami chakana savdo tovar aylanmasi hajmining 76,5 % ini tashkil qildi. Kichik tadbirkorlik sub'ektlari umumiy tovar aylanmasi hajmining 4 440,5 mlrd.so'mini yakka tartibdagi tadbirkorlar tashkil qildi.

Kichik tadbirkorlikning ulushi (foizda)




Chakana savdo tovar aylanmasi umumiy hajmida kichik tadbirkorlik (biznes)ning eng katta ulushi Ulug'nor - 99,6 %, Qo'rg'ontepa - 99,0 %, Xo'jaobod - 98,5 %, Izboskan - 98,2 % va Jalaquduq - 98,0 % tumanlarida. Eng past ulush Andijon shahar - 71,1 %, Asaka - 90,8 % va Bo'z tumanlarida - 95,2 % qayd etildi.

ULGURJI SAVDO TOVAR AYLANMASI

2019- yil yanvar-iyun oylarida ulgurji tovar aylanmasi hajmi 1 272,5 mlrd. soʻmni yoki 2018- yilning shu davriga nisbatan 106,1 % ni tashkil qildi. Ulgurji savdo tovar aylanmasi oʻtgan yilning shu davriga nisbatan Xonobod shahar 79,0 %, Asaka 79,0 % va Izboskan tumanlarida 27,8 % ga kamayish kuzatildi.

Kichik tadbirkorlik (biznes) sub'ektlarining ulgurji savdo tovar aylanmasi 2,7 % ga oʻsdi va 869,9 mlrd. soʻmga yetdi, umumiy ulgurji savdo tovar aylanmasidagi ulushi 68,4 % ni tashkil qildi.

Kichik tadbirkorlik (biznes) sub'ektlarining ulgurji savdodagi ulushi, (foizda)



**2019- yil yanvar-iyun oylarida ulgurji savdoda yirik
korxonalar savdo aylanmasi**

|  | Mln. soʻmda | Oʻtgan yilning shu davriga nisbatan, foizda |
|---|------------------|---|
| Viloyat boʻyicha: | 402 558,2 | 114,3 |
| Andijon sh | 356 949,9 | 117,0 |
| Xonobod sh | - | - |
| Andijon t | 81,8 | 166,4 |
| Asaka t | 3 268,8 | - |
| Baliqchi t | 109,0 | 68,0 |
| Buloqboshi t. | - | - |
| Boʻz t | 48,3 | 53,0 |
| Jalaquduq t. | 50,1 | 38,3 |
| Izboskan t. | 166,7 | 5,4 |
| Ulugʻnor t. | 56,5 | 54,6 |
| Marhamat t. | 71,6 | 40,7 |
| Oltinkoʻl t. | 66,3 | 58,9 |
| Paxtaobod t. | 91,7 | 62,0 |
| Xoʻjaobod t. | 83,5 | 26,3 |
| Shahrixon t. | 4 721,0 | 49,4 |
| Qoʻrgʻontepa t. | 36 793,0 | 111,3 |

2019- yil yanvar-iyun oylarida ulgurji savdo aylanmasining oʻtgan yilning shu davriga nisbatan oʻsish surʼati yuqori boʻlgan yirik korxonalar Andijon tumani (166,4 %), Qoʻrgontepa tumani (111,3 %) va Andijon shahar (117,0 %) ni tashkil etdi. Xonobod shahar va Buloqbosh tumanlarida ulgurji savdo bilan shugʻullanuvchi yirik korxonalar faoliyati bolʻmagan.

2019- yil yanvar-iyun oylarida o'tgan yilning shu davriga nisbatan kichik tadbirkorlik (biznes) sub'ektlarining savdo aylanmasidagi o'sish sur'ati, foizda




2019- yil yanvar-iyun oylarida o'tgan yilning shu davriga nisbatan mikrofirmalarning savdo aylanmasidagi o'sish sur'ati, foizda




2019- yil yanvar-iyun oylarida o'tgan yilning shu davriga nisbatan kichik korxonlarning savdo aylanmasidagi o'sish sur'ati, foizda



2019- yil yanvar-iyun oylarida o'tgan yilning shu davriga nisbatan yakka tartibdagi tadbirkorlarning savdo aylanmasidagi o'sish sur'ati, foizda



2019- yil yanvar-iyun oylarida o'tgan yilning shu davriga nisbatan yirik korxonalar savdosi



2019- yil yanvar-iyun oylarida umumiy ovqatlanish korxonalarini savdo aylanmasi bo'yicha yirik korxonalar faqatgina Andijon tuman (2 225,3 mln. so'm) va Andijon shahar (1 928,5 mln. so'm) larida mavjud bo'lib jami o'tgan yilga nisbatan 81,6 % ni tashkil etdi. Jamiga nisbatan ulushi 6,2 foizni tashkil qildi.

Andijon viloyat Statistika boshqarmasi
“Tashqi iqtisodiy faoliyat va savdo statistikasi” bo‘limi

Tel.: (74) 224 – 82 – 57